XALQ DEPUTATLARI QO‘SHKO‘PIR TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 5-mart VII-24-27-12-172-K/26 Qo‘shko‘pir tumani

Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumani hududida ko‘rsatiladigan obodonlashtirish va maishiy chiqindi xizmatlari uchun to‘lov tariflarini miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarorining 8.a-bandida 2026-yil 1-yanvardan boshlab obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan tuman (shahar)lar markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatishga ruxsat beriladi. Bunda chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatganlik bo‘yicha tariflar tuman (shahar)lar hokimliklari tomonidan xalq deputatlari tuman (shahar)lar kengashlariga ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritilishi belgilangan.

Yuqoridagilarga asosan, kun tartibidagi masalalarni atroflicha muhokama qilib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman kengashi

Qaror qiladi:

1. Qo‘shko‘pir tumani hokimi o‘rinbosari – tuman obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i R.Matyaqubovning tuman hududida ko‘rsatiladigan obodonlashtirish va maishiy chiqindi xizmatlari uchun to‘lov tariflarini miqdorini tasdiqlash to‘g‘risidagi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi PQ-387-sonli qarori 8.a-bandida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tadbirkorlik subyektlari va

budjet tashkilotlariga ko‘rsatiladigan chiqindilarni olib chiqish va ko‘rsatiladigan obodonlashtirish xizmati narxlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qo‘shko‘pir tumani hokimligi axborot xizmati rahbari (M.Matyaqubov)ga mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman kengashining agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi A.Erkinov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **TANGRIBERGANOV MAXMUD OLLAQULIYEVICH**

Xalq deputatlari Qo‘shko‘pir tumani
Kengashining
2026-yil 5-martdagi
VII-24-27-12-172-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumanida maishiy chiqindilar, agrotexnik ishlov berishdan hosil bo‘ladigan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabbalari, barglari) hamda smyot maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tariflari

№	Xizmat ko‘rsatiladigan shaxslar	Tip, marka, artikul yoki model raqami	O‘lchov birligi	Tarif miqdori (so‘m)
1	Yuridik shaxslar uchun	Maishiy chiqindilar	m3	58000
2	Budjet tashkilotlari va tadbirkorlik subyektlari uchun	Obodonlashtirish	m2	700